





QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-iyun oylari
uchun)*

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyat tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **209 426,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **32 927,9** ming. AQSH dollariga yoki **13,6 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-iyun, ming AQSH dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish su'ratini, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	242 354,2	209 426,3	86,4 %	x
Eksport 	96 772,9	97 732,0	101,0 %	100,0
 <i>Tovarlar</i>	94 535,5	93 006,5	98,4	95,2
 <i>Xizmatlar</i>	2 237,4	4 725,5	2,1 M.	4,8
Import 	145 581,3	111 694,3	76,7 %	100,0
 <i>Tovarlar</i>	145 036,8	111 694,3	77,0	100,0
 <i>Xizmatlar</i>	544,5	-	-	-
 Saldo	-48 808,4	-13 962,3	x	x



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **97 732,0** ming AQSH dollariga (**1,0 %** ga o'sdi) va import hajmi **111 694,3** ming AQSH dollariga (**23,3 %** ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **13 962,3** ming AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSH dollari)



Turkiya

TSA – 61 436,0
Eksport – 31 063,8
Import – 30 372,2



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 41 147,1
Eksport – 11 245,1
Import – 29 902,0



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 27 039,4
Eksport – 14 975,5
Import – 12 063,9



Qozog'iston

TSA – 21 266,7
Eksport – 10 286,2
Import – 10 980,5



Eron

TSA – 6 938,2
Eksport – 5 033,9
Import – 1 904,3



Pokiston

TSA – 4 897,0
Eksport – 4 573,8
Import – 323,2



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 4 860,4
Eksport – 4 570,4
Import – 290,0



Ukraina

TSA – 4 800,0
Eksport – 3 737,9
Import – 1 062,1



Germaniya

TSA – 4 441,2
Eksport – 4,6
Import – 4 436,6



Fransiya

TSA – 3 003,9
Eksport – 0,0
Import – 3 003,9




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda MDH davlatlari Qozog'iston, va Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Faol tashqi savdo balansi kuzatilgan davlatlar Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Eron va Pokiston hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan o'nta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi (**4 280,3** ming AQSH dollari), Pokiston (**4 250,7** ming AQSH dollari), Eron (**3 129,6** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**2 911,6** ming AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan **10** ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.











. Qashqadaryo viloyati, jahonning **60** dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**29,3** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**19,6** %), Rossiya Federatsiyasida (**12,9** %), Qozog'iston (**10,2** %), Eronda (**3,3** %), Pokistonda (**2,3** %) va Qirg'iz Respublikasida (**2,3** %) qayd etilgan.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming AQSH dollari)













	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Turkiya	43 292,9	23 024,4	61 436,0
	<i>Eksport</i>	36 065,7	13 402,1	31 063,8
	<i>Import</i>	7 227,3	9 622,3	30 372,3
	Xitoy Xalq Respublikasi	134 825,1	58 678,0	41 147,1
	<i>Eksport</i>	36 210,3	8 440,0	11 245,2
	<i>Import</i>	98 614,8	50 238,0	29 902,0
	Rossiya Federatsiyasi	33 132,9	26 715,4	27 039,4
	<i>Eksport</i>	18 514,6	16 376,6	14 975,5
	<i>Import</i>	14 618,2	10 338,9	12 063,9
	Qozog'iston	36 190,3	22 724,1	21 266,7
	<i>Eksport</i>	18 691,4	18 218,4	10 286,3
	<i>Import</i>	17 498,9	4 505,7	10 980,5
	Eron	36 682,7	13 096,6	6 938,2
	<i>Eksport</i>	35 391,2	12833,7	5033,9
	<i>Import</i>	1 291,5	262,8	1 904,3
	Pokiston	1 596,9	3 547,6	4 897,0
	<i>Eksport</i>	1 156,3	3 525,3	4 573,8
	<i>Import</i>	440,6	22,3	323,1
	Qirg'iz Respublikasi	3 434,3	6 478,1	4 860,4
	<i>Eksport</i>	3 396,1	5 313,3	4 570,4
	<i>Import</i>	38,2	1 164,8	290,0
	Ukraina	8 401,8	1 714,6	4 800,1
	<i>Eksport</i>	3 162,8	1 335,2	3 737,9
	<i>Import</i>	5 239,0	379,4	1 062,1
	Germaniya	6 589,7	18 605,1	4 441,2
	<i>Eksport</i>	5,7	22,6	4,6
	<i>Import</i>	6 584,0	18 582,5	4 436,6
	Fransiya	3 429,3	3 167,5	3 003,9
	<i>Eksport</i>	-	0,1	-
	<i>Import</i>	3 429,3	3 167,4	3 003,9



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming AQSH dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Koreya Respublikasi	7 543,0	2 019,6	2 645,6
	<i>Eksport</i>	54,6	22,4	4,8
	<i>Import</i>	7 488,4	1 997,2	2 640,8
	Turkmaniston	6 453,3	1 435,9	2 350,5
	<i>Eksport</i>	510,7	106,6	1 191,9
	<i>Import</i>	5 942,6	1 329,3	1 158,6
	Polsha	1 276,3	1 126,6	2 149,6
	<i>Eksport</i>	704,5	220,2	1 928,3
	<i>Import</i>	571,7	906,4	221,3
	Tojikiston	12 152,0	1 742,5	1 564,2
	<i>Eksport</i>	11 606,5	1 678,5	1 298,3
	<i>Import</i>	545,5	64,1	265,9
	Afg'oniston	10 652,1	4 766,6	1 482,4
	<i>Eksport</i>	10 628,5	4 701,0	1 471,6
	<i>Import</i>	23,6	65,6	10,8
	Misr	-	113,1	1 475,2
	<i>Eksport</i>	-	113,1	1 475,2
	<i>Import</i>	-	-	-
	Kanada	716,8	631,3	1 462,9
	<i>Eksport</i>	0,8	2,5	0,3
	<i>Import</i>	715,9	628,8	1 462,6
	Italiya	2 102,6	2 253,9	1 263,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	2 102,6	2 253,9	1 263,5
	Buyuk Britaniya	23,0	519,3	1 188,5
	<i>Eksport</i>	-	-	503,9
	<i>Import</i>	23,0	519,3	684,6
	Latviya	1 946,5	322,2	1 119,6
	<i>Eksport</i>	212,7	24,5	55,1
	<i>Import</i>	1 733,8	297,7	1 064,5



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun 2021- yil)

	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	
Qashqadaryo viloyati	209 426,2	86,4	Eng yuqori hajm, ming AQSH dollari
Qarshi sh.	19 726,6	11,1	Qarshi – 56 208,3
Shahrisabz sh.	3 307,2	39,7	Kasbi – 22 543,8
<i>hududlar</i>			
G'uzor	19 370,6	25,3	
Dehqonobod	9 421,9	8,3	Qarshi sh. – 19 726,6
Qamashi	7 097,8	2,0 m.	
Qarshi	56 208,3	84,9	
Koson	14 976,3	170,9	Eng quyi hajm, ming AQSH dollari
Kitob	19 380,0	34,4	
Mirishkor	2 893,0	88,5	Muborak – 3 835,1
Muborak	3 835,1	137,1	
Nishon	5 390,2	6,8	Shahrisabz sh. – 3 307,2
Kasbi	22 543,8	28,1	
Chiroqchi	4 962,8	40,0	
Shahrisabz	7 125,3	52,3	Mirishkor – 2 893,0
Yakkabog'	12 105,4	121,1	
Boshqalar	1 081,9	1,7	

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi tumani **26,8 %** ulush bilan **56 208,3** ming. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Mirishkor tumani **1,4 %** ulush bilan **2 893,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.





Qashqadaryo viloyat tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **30,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan ulushi **2,7 %** ga oshdi.

QASHQADARYO VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **2,7 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **69,7 %** ni tashkil etdi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun, ming AQSH dollari)




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-iyun holatiga **63 519,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **37 245,0** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import – **26 274,3** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**12,9** %), Qozog'iston (**10,2** %), Qirg'iz Respublikasi (**2,3** %), Ukraina (**2,3** %), Turkmaniston (**1,1** %) va Tojikiston (**0,7** %) davlatlari bilan qayd etildi.




QASHQADARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-iyun, ming AQSH dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi.

YOII bilan Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **53 880,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **30 092,7** ming AQSH dollari, import hajmi **23 787,6** ming AQSH dollariga yetdi.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-iyun)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlar soni **160** tani tashkil etib, ular tomonidan **97 731,9** ming AQSH dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **1,0** % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **95,1** % ni tashkil etib, ular yuqori ulushga egalari sanoat tovarlari (**64,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**17,0** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**5,9** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	96 772,9	97 731,9	51,5	101,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23 403,3	16 597,1	60,0	70,9	24,2	17,0
Ichimliklar va tamaki	241,6	3,9	61,4	1,6	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15 077,8	5 020,4	30,4	33,3	15,6	5,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	687,8	571,7	3,8	83,1	0,7	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	19 671,2	5 741,4	66,0	29,2	20,3	5,9
Sanoat tovarlari	32 310,5	62 762,8	73,3	194,2	33,4	64,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	41,8	327,4	34,6	7,8 m.	0,0	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	2 171,9	1 970,4	4,3 m.	90,7	2,2	2,0
Hayvonlar va o'simlik yog'lar	929,7	11,3	32,6	1,2	1,0	0,0
Xizmatlar	2 237,4	4 725,5	67,5	2,1 m.	2,3	4,9



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Karam va shunga o'xshash iste'mol qilinadigan karamsifat sabzavotlar	1 344,8	81,4
O'rik, olcha, shaftoli va olxo'ri	3 212,7	36,6
Loviyalar	2 324,9	75,7
Pomidor	1 580,9	104,8
Piyoz, shalot piyozi, yangi yoki sovutilgan	2 885,8	2,2 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Qizil qatron: tabiiy qatronlar va balzamlar	1 143,3	122,3
Barcha turdagi oltingugurt (sublimatsiya qilingan, cho'kindi yoki kolloiddan tashqari)	1 185,2	6,0 m.
Paxta chiqindilari (shu jumladan kalava chiqindilar va xom ashyolar) boshqa paxta chiqindilari, taralmagan	847,8	4,0 m.
Ipak chiqindilari	601,5	85,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar		
Elektr toki	562,2	82,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5 720,8	46,6
Sanoat tovarlari		
Chakana savdo uchun mo'ljallanmagan paxta iplari, tarkibida paxta 85 % va undan ko'p bo'lgan tikuv ipdan tashqari	58 238,3	2,1 m.
Temir yoki pulatdan qilingan, boshqa toifalarga kiritilmagan maishiy buyumlar va ularning qismlari	646,6	7,6 m.
To'qimachilik materiallaridan tayyorlangan paxta va undan tayyorlangan buyumlar	1 051,2	118,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Trikotaj yoki to'qilgan futbolka, maykalar va boshqa ichki kiyimlar	470,7	56,2
Tungi kuylaklar va pijamalar	391,5	6,9 m.
Paxta kuylaklari	230,8	3,7 m.





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



So'ngi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-iyunida **25,4** % dan 2021- yilning yanvar-iyunida **38,1** % ga ko'paydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **61,9** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyun, % da)

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (**31,8** eksport umumiy hajmining %), Rossiya Federatsiyasi (**15,3** %), Qozog'iston (**10,5** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**11,5** % i), Eron (**5,2** %), Qirg'iz Respublikasi (**4,7** %) va Pokiston (**4,7** %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **83,7** foizni tashkil etmoqda.



QASHQADARYO VILOYATIINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'рни	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Turkiya	13 402,1	31 063,8	37,2	2,3 m.	3	1
Rossiya Federatsiyasi	16 376,6	14 975,5	88,5	91,4	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	8 440,0	11 245,2	23,3	133,2	5	3
Qozog'iston	18 218,4	10 286,3	97,5	56,5	1	4
Eron	12 833,7	5 033,9	36,3	39,2	4	5
Pokiston	3 525,3	4 573,8	3,0 m.	129,7	8	6
Qirg'iz Respublikasi	5 313,3	4 570,4	156,5	86	6	7
Ukraina	1 335,2	3 737,9	42,2	280	10	8
Polsha	220,2	1 928,3	31,2	8,8 m.	15	9
Misr	113,1	1 475,2	-	13,0 m.	17	10
Afg'oniston	4 701,0	1 471,6	44,2	31,3	7	11
Tojikiston	1 678,5	1 298,3	14,5	77,4	9	12
Turkmaniston	106,6	1191,9	20,9	11,2 m.	18	13
Moldova	703,5	924,1	163,8	131,4	12	14
Hindiston	328,0	800,0	8,5 m.	2,4 m.	14	15
Cehiya	433,9	699,1	54,4	161,1	13	16
Singapur	974,9	562,2	2,6 m.	57,7	11	17
Buyuk Britaniya	-	503,9	-	-	20	18
Belorussiya	150,5	247,3	53,6	164,3	16	19
Litva	96,6	185,2	36,6	191,7	19	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	97 732,0	101,0
Qarshi sh.	4 535,8	62,6
Shahrisabz sh.	753,2	3,9 m.
<i>hududlar:</i>		
G'uzor	9 537,0	83,0
Dehqonobod	1 271,1	82,6
Qamashi	6 831,9	11,2
Qarshi	26 978,1	2,0 m.
Koson	12 204,8	60,7
Kitob	4 697,6	3,6 m.
Mirishkor	1 622,9	65,5
Muborak	2 723,8	87,7
Nishon	507,5	4,2 m.
Kasbi	11 181,0	2,9 m.
Chiroqchi	1 271,6	166,5
Shahrisabz	4 614,2	74,9
Yakkabog'	8 659,7	71,0
Boshqalar	341,7	2,5 m.

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Qarshi – 26 978,1

Koson– 12 204,8

Kasbi– 11 181,0

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Nishon – 507,5

Shahrisabz sh. – 753,2

Dehqonobod – 1 271,1

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi tumanida **27,6 %** ulush bilan **26 978,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushlarni (Nishon tumanida – **0,5 yoki 507,5** ming AQSH dollari va Shahrisabz shahrida – **0,8 %** yoki **753,2** ming AQSH dollari) tashkil etdi.




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori viloyat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmogda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **16 135,1** ming AQSH dollari qiymatli **44,6** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **26,2** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **9 887,3** ming AQSH dollariga teng **37,2** ming tonna sabzavot, shuningdek, **6 247,8** ming. AQSH dollari qiymatidagi **7,4** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar- iyun)























Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi, Pokiston hamda Afg'oniston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **16,5** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-iyun)



Davlatlar	tonna	ming AQSH dollari	ulushi, % da *
Jami:	44562,8	16135,2	100,0
 Qozog'iston	22586,1	5977,5	37,0
 Rossiya Federatsiyasi	13688,1	4557,2	28,2
 Pokiston	747,5	1816,8	11,3
 Qirg'iz Respublikasi	751,2	1551,5	9,6
 Turkmaniston	4695,9	784,0	4,9
 Afg'oniston	618,0	444,1	2,8
 Ukraina	683,1	410,8	2,5
 Xitoy Xalq Respublikasi	127,5	127,5	0,8
 BAA	66,0	125,5	0,8
 Ispaniya	21,8	91,6	0,6
 Latviya	114,4	55,1	0,3
 Iroq	43,0	43,0	0,3
 Tojikiston	100,2	40,1	0,2
 Polsha	55,3	32,3	0,2
 Belorussiya	141,1	28,3	0,2
 Saudiya Arabistoni	21,0	21,0	0,1
 Armaniston	22,0	13,2	0,1
 Moldova	59,5	11,9	0,1
 Niderlandiya	21,0	3,5	-
 Koreya Respublikasi	0,1	0,3	-

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **37,0** % ni tashkil qiladi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **4 725,5** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **4,9 %** ini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **111,2 %** ga ko'payish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**39,3 %**), qurilish xizmatlari (**30,9 %**), boshqa biznes xizmatlari (**16,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**7,8 %**) va sayohat (**5,6 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATNING IMPORTI

(2021- yil yanvar-iyun)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **111 694,3** ming AQSH dollarini va 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **23,3 %** ga kamayish kuzatildi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**56,3 %**), sanoat tovarlari (**13,3 %**), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**9,8 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar- iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **33 887,0** ming AQSH dollariga kamaydi va **111 694,3** ming. AQSH dollarini tashkil etdi.



QASHQADARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	145 582,4	111 694,3	69,0	76,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4 226,3	10 008,8	29,9	2,4 m.	2,9	9
Ichimlik va tamaki	-	4,8	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 000,1	7 806,4	69,0	130,1	4,1	7,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	2 933,7	2 451,5	67,8	83,6	2,0	2,2
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	331,2	1,1	89,3 m.	-	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	18 100,7	10 977,8	64,5	60,6	12,4	9,8
Sanoat tovarlar	8 306,2	14 837,2	17,5	178,6	5,7	13,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	98 994,0	62 891,3	94	63,5	68	56,3
Turli xil tayyor buyumlar	6 476,6	2 385,3	65,4	36,8	4,4	2,1
Xizmatlar	544,6	-	25,1 m.	-	0,4	-



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Naslli qoramol	2 054,5	7,5 m.
Tirik qoramol zotli va nasllilardan tashqari	1 914,0	8,9 m.
Kartoshka	1 845,3	116,6
Tirik quylar	1 777,9	48,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Qalinligi 6 mm dan oshgan ignabargli daraxtlar yog'ochi	4 687,7	144,5
Alyumin oksidi, sun'iy korunddan tashqari	1 413,5	2,3 m.
Kungaboqar urug'i	580,0	74,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvonlar xom-ashyolari	480,0	110,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar		
Yog', neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 598,1	108,6.
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan o'simlik moylari va yog'lari	259,8	100,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Zararli hashoratlarga qarshi dori vositasi	3 092,9	43,8
Siklogeksan	1 240,3	95,3
Yovvoyi o'tga qarshi kurashish vositalari	1 610,5	28,9
Truba, quvur va shlanglar	246,8	80,1 m.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Sanoat tovarlari		
Quyma temir va po'latdan yasalgan yarim tayyor mahsulotlar	4 378,7	-
Yassi prokat bilan qoplangan po'lat buyum	1 397,1	-
Neft va gaz quvurlari	460,5	95,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Suyuqlik yoki kukunlarni yoyish, sochish yoki sepish uchun qishloq xo'jaligi yoki bog' uskunolari	27 290,7	14,5 m.
Tibbiyot, jarroqlik, tishni davolash yoki veterinariya maqsadlarida ishlatiladigan yoki ishlatilmaydigan rentgen nurlarini qo'llashga mo'ljallangan apparatura (radiografiya va radioterapiya uchun apparaturalar xam)	1 237,0	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan yuk tashish avtomobillari	739,6	135,8
Avtokranlar	622,8	130,6
Ventilyatorlar bilan jixozlangan (oshxona tutunli lyuklardan tashqari) shamollatish yoki qayta aylantirish uchun xavo yoki vakum nasoslari, xavo yoki boshqa gaz kompressorlari	3 162,7	127,8
Qattiq tuproqni, toshni, rudalarni yoki boshqa minerallarni (kukun yoki xamirni) maydalash yoki maydalash uchun mashinalar	3 649,3	148,3
Kauchuk yoki plastmassani ishlov berish yoki boshqa materiallarga o'xshash buyumlardan buyumlar tayyorlash uchun mashinalar	1 212,8	154,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa toifalarga kiritilmagan tovarlarni tashish yoki qadoqlash uchun maxsulotlar; probkalar, qopqoqlar va boshqa tiqinlaydigan moslamalar	679,5	40,7 m.



Umumiy tovarlar importi 2020- yilning shu davriga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlarida o'sish kuzatildi. Masalan Boshqa toifalarga kiritilmagan tovarlarni tashish yoki qadoqlash uchun maxsulotlar; probkalar, qopqoqlar va boshqa tiqinlaydigan moslamalar – **679,5** ming AQSH dollariga teng bo'ldi.



MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi **23,5:76,5** nisbatni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan **45** dan ortiq davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Germaniya, Fransiya va Koreya Respublikasi jami importning **86,0** % ulushini tashkil qildi, bu **79 148,8** ming AQSH dollarini tashkil



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyun, % da)



QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Turkiya	9 622,3	30 372,3	133,1	3,2 m.	4	1
Xitoy Xalq Respublikasi	50 238,0	29 902,0	50,9	59,5	1	2
Rossiya Federatsiyasi	10 338,9	12 063,9	70,7	116,7	3	3
Qozog'iston	4 505,7	10 980,5	25,7	2,4 m.	6	4
Germaniya	18 582,5	4 436,6	2,8 m.	23,9	2	5
Fransiya	3 167,4	3 003,9	92,4	94,8	7	6
Koreya Respublikasi	1 997,2	2 640,8	26,7	132,2	9	7
Eron	262,8	1 904,3	20,4	7,2 m.	18	8
Kanada	628,8	1 462,6	87,8	2,3 m.	12	9
Italiya	2 253,9	1 263,5	107,2	56,1	8	10
Latviya	1 329,3	1 158,6	22,4	87,2	11	11
Avstriya	297,7	1 064,5	17,2	3,6 m.	17	12
Ukraina	379,4	1 062,1	7,2	2,8 m.	16	13
Turkmaniston	125,4	885,2	29,3	7,1 m.	20	14
BAA	545,6	853,2	45,5 m.	156,4	14	15
Buyuk Britaniya	5 703,0	803,3	160,9	14,1	5	16
Shvesariya	588,9	763,4	47,8	129,6	13	17
Belorusiya	1 455,6	712,9	125,8	49,0	10	18
Gollandiya	200,1	686,6	69,7	3,4 m.	19	19
Argentina	519,3	684,6	22,6 m.	131,8	15	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-iyun)

	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	111 694,3	76,7
Qarshi sh.	15190,8	96,3
Shahrisabz sh.	2 554,0	2,3 m.
<i>hududlar:</i>		
G'uzor	9 833,6	40,9
Dehqonobod	8 150,8	126,7
Qamashi	265,9	23,7
Qarshi	29230,2	2,1 m.
Koson	2 771,5	140,9
Kitob	4682,4	166,8
Mirishkor	1 270,1	6,0 m.
Muborak	1 111,3	155,6
Nishon	4 882,7	76,8
Kasbi	11 362,8	30,7
Chiroqchi	3 691,2	2,9 m.
Shahrisabz	2 511,1	52,3
Yakkabog'	3 445,7	191,7
Boshqalar	740,2	3,7

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Kitob - 14 682,4

Qarshi sh-15 190,8

Qarshi - 29 230,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Muborak - 1 270,1

Mirishkor - 1 111,3

Qamashi - 265,9

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi tumani **26,2** % ulush bilan **29 230,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Qamashi tumani **0,2** % ulush bilan **265,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **67 020,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,2** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **60,0** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun)



43,6%

Turkiya

29 213,3 ming
AQSh dollari

29,9%

**Xitoy Xalq
Respublikasi**

20 011,8 ming
AQSh dollari

3,5%

Germaniya

2 359,0 ming
AQSh dollari

2,4%

**Koreya
Respublikasi**

1 399,2 ming
AQSh dollari

2,4%

**Rossiya
Federatsiyasi**

1 612,9 ming
AQSh dollari



SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **14 837,2** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **78,6** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **13,3** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun)



Xitoy Xalq Respublikasi

5 138,9 ming AQSH dollari
ulushi – 34,6 %



Qozog'iston

4 763,4 ming AQSH dollari
ulushi – 32,1 %



Rossiya Federatsiyasi

1 082,3 ming. AQSH dollari
ulushi – 7,3 %



Koreya Respublikasi

798,4 ming AQSH dollari
ulushi – 5,4 %



Turkiya

566,6 ming AQSH dollari
ulushi – 3,8 %



Sanoat tovarlari importi asosan quyma temir va po'lat (**4 378,7** ming AQSH dollari), yassi prokat bilan qoplangan po'lat buyumlar (**1 397,1** ming AQSH dollari), neft va gaz quvurlari (**460,5** ming AQSH dollari) tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: (75) 221 44 28**

